

INSON HUQUQLARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

Mustafoqulova Aziza Baratjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro huquq fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasidagi muvozanat masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar, kuzatuv tizimlari va axborot texnologiyalarining inson huquqlariga ta‘siri ko‘rib chiqilgan. Xususan, shaxsiy hayot daxlsizligi, so‘z erkinligi, ma‘lumotlar xavfsizligi va diskriminatsiya bilan bog‘liq muammolar yoritilgan. Shuningdek, xavfsizlik va erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashda qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, texnologiyalardan mas‘uliyatli foydalanish hamda huquqiy va raqamli savodxonlikni oshirishning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada European Unionning AI Act qonuni hamda Xitoyning generativ sun‘iy intellekt bo‘yicha xavfsizlik talablari misol sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida texnologik taraqqiyot jarayonida inson huquqlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerakligi xulosasi chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *Sun‘iy intellekt, inson huquqlari, zamonaviy texnologiyalar, raqamli xavfsizlik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, so‘z erkinligi, kuzatuv tizimlari, diskriminatsiya, AI Act, huquqiy tartibga solish, raqamli savodxonlik.*

Kirish

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar dunyo bo‘ylab tez rivojlanmoqda. Ular odamlarning kundalik hayotini o‘zgartirib, turli sohalarda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu texnologiyalar ishlash uslublarini, muloqot qilishni va hatto odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham o‘zgartirmoqda. Smartfonlar, kompyuterlar, internet, sun‘iy intellekt va boshqa innovatsiyalar hayotimizning ajralmas qismiga allaqachon aylanib ulgurgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Quyida zamonaviy texnologiyalarning ijobiy va salbiy ta‘sirini ko‘rib chiqamiz.

Zamonaviy texnologiyalarning birinchi va eng muhim ijobiy jihatlaridan biri-kommunikatsiya sohasidagi o‘zgarishlardir. Internet va mobil telefonlar yordamida odamlar bir-birlari bilan tez va qulay muloqot qilmoqda. Masofaviy ishlash, o‘qish va yangiliklar olish osonlashdi. Onlayn ta‘lim, videokonferensiyalar, va ijtimoiy tarmoqlar biznes va shaxsiy hayotda ko‘plab o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Zamonaviy texnologiyalarning salbiy

ta'sirilarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Internet va ijtimoiy tarmoqlar ba'zan odamlar o'rtasidagi real munosabatlarni pasaytiradi. Ko'p vaqtni ekranga qarab o'tkazish, jamiyatda yolg'izlik va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham tobora muhim bo'lib bormoqda. Xakerlar, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va boshqa kiberjinoyatlar xavfi kundan-kun ortib bormoqda.[1]

Inson huquqlari jamiyatda eng oliy qadriyat bo'lib, shaxsning tug'ilishidan to vafotigacha bo'lgan erkinligi, qadr-qimmatini va taraqqiyotini ta'minlaydi. Ular ijtimoiy barqarorlik, huquqiy davlat asoslari hamda demokratik jamiyat rivojining asosi hisoblanadi. Inson huquqlari adolatli, tenglikka asoslangan va inson manfaatlarini ustun qo'yadigan jamiyatni shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi.[2] Inson huquqlari shunchaki qoidalar majmuasi emas, balki jamiyatning barcha a'zolari farovonligi va qadr-qimmatini uchun zarur bo'lgan tamal toshidir.

Inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalar (sun'iy intellekt, ma'lumotlar ba'zasi, kuzatuv tizimlari) o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bugungi kunda eng dolzarb global muammolardan biri hisoblanadi. Texnologiyalar hayotimizni osonlashtirsa-da ularning nazoratsiz rivojlanishi fundamental huquqlarga tahdid solishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalarning inson hayotiga, huquqlariga tahdid solish muammosi butun dunyo bo'ylab juda ko'p mamlakatlarda uchratish mumkin. Qiziqarli jihati shundaki, bunday muammolar soni oshib bormoqda.

Ushbu muammoning dolzarbligi quyidagi asosiy omillar bilan izohlanadi:

Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi: Raqamli dunyoda shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishi, insonga doir shaxsiy ma'lumotlarning yig'ilishi, tahlil qilinishi va sotilishi shaxsiy daxlsizlik huquqini jiddiy xavf ostiga qo'yimoqda.

Kuzatuv tizimlari va shaxsiy erkinlik: Yuzni tanish texnologiyalari va umumiy kuzatuv kamerlarining ko'payishi insonlarning harakatlanish va shaxsiy hayot erkinligini cheklab qo'yishi mumkin. Bundan kuzatuv kameralari inson erkin harakatlanish huquqini ham cheklab qo'yayotganga o'xshaydi, sababi kuzatuv kameralari sizning harakatlaringizni kuzatib boradi natijada siz o'zingizni nazoratda kuzatuvdagi ya'ni ta'qibdagi insonday his qilasiz. Siz o'zingizni erkinliklaringizni xohlaganingizdek amalga oshira olmaysiz.

So'z erkinligi va axborot manipulyatsiyasi: Ijtimoiy tarmoqlar va algoritmlar orqali yolg'on ma'lumotlarning tarqalishi, fikrni manipulatsiya qilish va erkin fikr bildirish huquqiga ta'sir o'tkazish xavfi mavjud. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda insonlarning qadr-qimmatiga

putur yetkazish kommentariyalarga har xil tahqirlovchi so‘zlar bilan izoh qoldirish afsuski, hozirgi paytda juda ko‘p uchramoqda.

Inson huquqlari va innovatsiyalar o‘rtasidagi uyg‘unlik zamonaviy jamiyatning evolyutsion muvozanatini belgilovchi konseptual o‘qdir. Texnologik rivojlanish inson qadr-qimmati va huquqlarini hurmat qilgan holda amalga oshirilishi shart.

Inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalar (sun‘iy intellect , katta ma‘lumotlar) o‘rtasidagi muvozanatni tadqiq qilish hozirgi kunda eng dolzarb ilmiy va amaliy yo‘nalishlardan biridir. Bunday taddqiqotlarning asosiy maqsadi texnologik taraqqiyotdan foydalangan holda inson huquqlarini himoya qilish va ularning buzilishining oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishdir

Asosiy qism

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda sifat tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqot davomida sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar va kuzatuv tizimlarining inson huquqlariga ta‘siri huquqiy hamda tahliliy yondashuv asosida o‘rganildi.

Tadqiqotning nazariy asosini inson huquqlari, axborot xavfsizligi va sun‘iy intellektni tartibga solishga oid xalqaro huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi. Jumladan, European Unionning AI Act qonuni hamda Xitoyning generativ sun‘iy intellekt bo‘yicha xavfsizlik talablari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda:

- tahliliy yondashuv,
- qiyosiy-huquqiy tahlil,
- tavsifiy usul,
- kontent tahlili

metodlaridan foydalanildi.

Tahliliy yondashuv orqali zamonaviy texnologiyalarning inson huquqlariga ijobiy va salbiy ta‘siri o‘rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil yordamida turli davlatlarning sun‘iy intellektni tartibga solish bo‘yicha yondashuvlari solishtirildi. Tavsifiy usul orqali texnologik taraqqiyotning jamiyat va inson huquqlariga ta‘siri izohlandi. Kontent tahlili asosida esa xalqaro hujjatlar, qonunlar va ilmiy manbalardagi asosiy g‘oyalar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida xavfsizlik va erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda huquqiy tartibga solish, xalqaro hamkorlik va texnologiyalardan mas‘uliyatli foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasidagi munosabatlar dolzarb ilmiy mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi inson huquqlari bilan bog‘liq yangi muammolarni yuzaga keltirdi.

Ilmiy tadqiqotlarda sun‘iy intellektning ta‘lim, tibbiyot va iqtisodiyotdagi ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, shaxsiy hayot daxlsizligi, diskriminatsiya va ma‘lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xavflari ham tahlil qilingan.

United Nations hamda UNESCO tomonidan sun‘iy intellekt etikasi va inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, European Unionning AI Act qonuni va Xitoyning generativ sun‘iy intellekt bo‘yicha xavfsizlik talablari AI texnologiyalarini tartibga solishning muhim namunalaridan hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, texnologik taraqqiyot jarayonida inson huquqlarini himoya qilish va sun‘iy intellektdan mas‘uliyatli foydalanish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. Axborot texnologiyalarning imkoniyatlarining kengayishi – bu zamonaviy jamiyatning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u asosan Raqamli texnologiyalar va Internet rivoji bilan bog‘liq. Bugungi kunda odamlar dunyoning istalgan nuqtasiga ma‘lumotlarga soniyalar ichida yetib borishi mumkin. Bu holat ta‘lim, iqtisodiyot, siyosat va kundalik hayotga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Asosiy jihatlaridan biri shundaki, texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Masalan: ta‘lim sohasidagi imkoniyatlar nazar tashlaydigan bo‘lsak, axborotga keng kirish imkoniyati ta‘lim texnologiyalari rivojiga olib keldi. Talabalar onlayn kurslar orqali bilim olishadi. Bu esa talabalarning mustaqil ta‘lim olish imkoniyati uchun keng yo‘l ochildi va o‘z ustida ko‘proq ishlash imkoniyatiga yo‘l ochildi. Bundan tashqari elektron kutubxonalar va maqolalardan foydalanishadi. Elektron manbalardan foydalanib ma‘lumot to‘plash va video darslar, interaktiv platformalar keng ommaga ochiq bo‘ldi. Bu esa o‘quvchilarning bilimni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masofaviy ta‘lim ham rivojlandi va istalgan joydan turib bilim olishi mumkin, vaqtni mustaqil boshqaradi shu bilan birgalikda dunyoning nufuzli universitetlari kursida qatnashadi. Texnologiyalar shu darajada rivojlandiki, talabalar o‘rtasida global hamkorlik qilish imkoniyatini yaratdi. Bu imkoniyatlar orqali xalqaro loyihalarda ishtirok etish, tajriba almashish va turli madaniyat bilan tanishadi.

Shuningdek, tibbiyotda sun‘iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash va davolash samaradorligi oshmoqda. Xususan, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash va analiz qilish orqali o‘smalarni aniqlashda yuqori aniqlikdagi sun‘iy intellekt dasturlari foydali bo‘lmoqda.[3]

Raqamli transformatsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan zamonaviy bosqichda sun'iy intellekt iqtisodiyotni boshqarishning strategik omiliga aylanmoqda. An'anaviy boshqaruv mexanizmlari ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va murakkab iqtisodiy jarayonlarni prognozlash imkoniyatlarida cheklangan bo'lsa, AI texnologiyalari real vaqt rejimida tahlil qilish, risklarni baholash hamda optimal qarorlar ishlab chiqish imkonini bermozda. Ayniqsa, global beqarorlik, pandemiyadan keying tiklanish jarayonlari va raqobat kuchaygan sharoitda iqtisodiy boshqaruvning ma'lumotga asoslangan modeli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga AI ning iqtisodiy boshqaruvdagi roli faqat texnologik ustunlik bilan cheklanmaydi. U institutsional muhit, mehnat bozori transformatsiyasi va kapital taqsimotiga ham ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda 15 million nafar fuqaroga tegishli shaxsiy ma'lumotlar sizib chiqqanligi haqida xabarlar tarqaldi. Mazkur holat jamoatchilik orasida turli muhokamalarga sabab bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar vazirligida o'tkazilgan matbuot anjumanida ushbu xabarlarga rasmiy izoh berildi. Unda vazir Sherzod Shermatov ishtirok etdi. Ta'kidlanishicha, joriy yilning 27-30-yanvar kunlari 3 ta davlat idorasining axborot tizimlariga kiberhujum uyushtirilgan. Holat vakolatli organlar tomonidan tezkor o'rganilgan.

Dastlabki tahlillar natijasiga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda aytilganidek, 15 million emas, taxminan 60 mingga yaqin ma'lumot yozuvlari haqida gap borayotgani aniqlangan. Shu bois, keng tarqalgan raqamlar asossiz ekani ma'lum qilindi.

Kiberhujum oqibatlarini bartaraf etish maqsadida axborot tizimlarida qo'shimcha himoya choralari ko'rilgan. Jumladan, Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) foydalanuvchilarining parollari yangilangan, xavfsizlik mexanizmlari kuchaytirilgan hamda shaxsiy ma'lumotlarni faqat fuqaro roziligi asosida taqdim etish imkoniyatlari takomillashtirilgan.

Mutaxassislarning tushuntirishicha, "shaxsiy ma'lumot sizib chiqishi" akkaunt buzildi degani emas. Ayrim hollarda faqat ism-familiya, tug'ilgan sana yoki telefon raqami kabi ma'lumotlardan biri qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin. Biroq fuqaroning shaxsiy ishtirokisiz uning nomidan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishning imkoni yo'q.

Shu bilan birga, fuqarolardan kibergigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish so'raldi. SMS-kod, parol va bank karta ma'lumotlarini hech kimga bermaslik, shubhali qo'ng'iroq va havolalarga ishonmaslik, ikki bosqichli himoyani yoqish tavsiya etildi.

Shuningdek, vazirlik jamoatchilikni rasmiy manbalarga tayanishga va tasdiqlanmagan xabarlarni tarqatmaslikka chaqirdi.[4]

Agar e'tibor olib qaraydigan bo'lsak, bu ma'lumotlar sizib chiqishi aholini ro'yxatdan olishdan keyin sodir bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar vaziri 60 ming fuqaroning shaxsiga doir ma'lumotlarning tarqishi ularning shaxsiy hayotining daxlsizligi putur yetgan.

Bundan tashqari zamonaviy texnologiyalar ,ayniqsa, vidiokuzatuv kameralar,biometrik tizimlar va raqamli kuzatuv vositalarining kengayishi jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.Biroq,bu jarayon insonlarning shaxsiy hayot daxlsizligi ta'sir ko'rsatishi mumkin.Doimiy kuzatuv ostida bo'lmish hissi fuqarolarda psixologik bosimni kuchaytiradi va ularning erkin harakat qilishiga to'sqinlik bo'ladi.Shu sababdan,kuzatuv texnologiyalaridan foydalanishda qonuniylik,zaruriyat va mutanosiblik tamoyillariga amal qilish muhimdir.Internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlarga o'z fikrini erkin ifoda etish imkonini berdi.Shu sababli birga,bu platformalarda haqorat,tuhmat va yolg'on ma'lumotlar tarqalishi ham kengaydi.Bu holat boshqa insonlarning hattoki davlat boshliqlarning nisbatan ham sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadi.Masalan,Facebook,Telegram,Instagram kabi platformalarda notog'ri axborot tez tarqalib,jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytirishi mumkin.

Amazon 25 yildan ortiq vaqt davomida sun'iy intellekt va mashinali o'rganish modellarini ishlab chiqib,uni o'z faoliyatining ko'plab sohalarida qo'llab kelmoqda.Amazon kompaniyasi 2014 – yildan boshlab ishga qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish uchun sun'iy intellekt vositasini ishlab chiqqan, biroq keyinchalik uning ayol nomzodlarga nisbatan noxolis (diskrimatsion)ekanligi aniqlangan.Ushbu holatning asosiy tafsilotlari:

Sababi:Tizim oxirgi 10 yil davomida kompaniyaga topshirilgan rezyumelar asosida o'qitilgan.Texnologiya sohasi tarixan erkaklar tomonidan boshqarilgani sababli,tizim “erkak kishi bo'lish”muvaffaqiyat omili degan noto'g'ri xulosaga kelgan.Amazon muhandislari tizimni to'grilashga harakat qilishgan,biroq baribir to'liq xolislikka erisha olishmagan.Shu sababli,2017-yilning boshida loyiha butunlay to'xtatilgan.Bu voqea sun'iy intellekt dunyosida “ma'lumotlardagi noxolislik” qanchalik xavfli bo'lishi mumkinligiga eng mashhur misollaridan biri bo'lib qoldi.[5]

Inson nuqta'i nazaridan muammoni tahlil qiladigan bo'lsak,avvalo, asosiy inson huquqlari - insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha.

Inson huquqlari – bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat'i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladigan ta'lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta'minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab

oladi. Inson huquqlarini ta'minlash qo'rquv, ta'qib yoki kamsitishsiz jamiyatda yashash uchun katta ahamiyatga ega.

1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ommaviy himoya qilinadigan asosiy inson huquqlarini belgilaydigan birinchi yuridik hujjat bo'ldi. Deklaratsiya va ikkita pakt — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) bilan birgalikda Inson huquqlari bo'yicha xalqaro billni tashkil etadi.

Insonning asosiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [Ikkinchi bo'limida](#) bayon etilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi V-XI- boblarida inson huquqlari, fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlari, inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari va fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyasining 19-moddasida aytilishicha O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi.[6] Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanishi natijasida inson huquqlarining yangi shakllari ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, shaxsiy ma'lumotlar himoya qilish, internetdagi erkinlik va raqamli daxlsizlik kabi masalalar zamonaviy inson huquqlari tarkibiga kirib bormoqda. Shu sababli davlatlar va xalqaro tashkilotlar texnologik taraqqiyot bilan inson huquqlarini uyg'unlashtirishga harakat qilmoqda. Yana ta'kidlab o'tishimiz muhim bo'lgan yana bir masala borki, hozirda rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt tizimlarida muammo mavjud bo'lib, yechim topilishi zarur bo'lgan huquqiy masala hisoblanadi ayniqsa inson huquqlariga bog'liq ekan yechim topish zarur ekanligini bildiradi. Shu sababli ko'plab davlatlar sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlar ishlab chiqishga kirishgan.

Misol uchun: Xitoyda AI xizmatlarini boshqarish qoidalari .2023 – yilda Xitoy “Generative Artificial Intelligence Services “ bo'yicha vaqtinchalik qoidalarni kuchga kiritdi. Bu generativ AI uchun dunyodagi ilk yirik reglamentlardan biri hisoblanadi.

Ushbu qoidaga ko'ra :

AI ishlab chiqaruvchi kompaniyalar davlat qonunlariga roiya qilishi kerak;

AI davlat xavfsizligiga zarar yetkazadigan kontent yaratmasligi lozim;

Yolg'on ma'lumot va ekstremistik kontent taqiqlanadi.

Foydalanuvchi ma'lumotlarni himoya qilishi shart.

Bu qonunlar asosan chatbotlar va generativ AI platformalariga qaratilgan.

Bundan tashqari Xitoy 2023 – yildan boshlab deepfake (soxtalik) texnologiyalari alohida nazorat qila boshladi.

Unga ko‘ra :

AI yordamida yaratilgan video, ovoz yoki suratlar maxsus belgilanishi kerak;

Inson roziligisiz uning yuzini yoki ovozini sun‘iy ravishda o‘zgartirish mumkin emas;

Deepfake orqali firibgarlik yoki yolg‘on axborot tarqatish taqiqlanadi.

Masalan: mashhur insonning yoki davlat boshlig‘ining ovozi yoki yuzini nusxalab yolg‘on axborot tarqatish taqiqlanadi. Bu orqali Xitoy o‘z fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik, sha‘ni va qadr -qimmatini daxlsizligini kafolatlayapdi.

Inson nuqtai nazaridan baholasak; Xitoyning AI qonunlari ikki xil baholanadi:

Ijobiy tomonlari: firibgarlik kamayadi; yolg‘on axborot nazorat qilinadi; Foydalanuvchi ma‘lumotlarini himoya qilinadi shuningdek fuqarolarning huquqlari kuchli himoya qilinadi; AI shaffofligi oshadi.

Reglamentga ko‘ra ma‘lumot manbasini boshqarish ; Agar ma‘lumotlarning 5% dan ortig‘i noqonuniy yoki zararli bo‘lsa , undan foydalanish mumkin emas . Tekshiruv treningdan oldin va keyin amalga oshiriladi. Bundan tashqari xavfsizlik choralariga oid talablar ; asosan voyaga yetmaganlar uchun anti-addiction tizimi bo‘lishi kerak;

Boshqalarning huquqlarini buzish; sha‘nni tahqirlash, obro‘ga putur yetkazish, maxfiylikni buzish , shaxsiy ma‘lumotlarni oshkor qilish va yuqori xavfli sohalar masalan tibbiyot , psixologik maslahat , muhim infratuzilmalar , avtomatik boshqaruv tizimlarini boshqarish yo‘riqnomalarni ko‘rsatish qat‘iyan belgilanadi.

Ushbu Xitoyning AI ga oid reglament haqida quyidagi link bo‘yicha batafsil ma‘lumot olishingiz mumkin:

<https://cset.georgetown.edu/publication/china-safety-requirements-for-generative-ai-final/>

Inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalarning o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash yo‘llari:

Qonunchilikni takomillashtirish. Zamonaviy texnologiyalar , ayniqsa sun‘iy intellekt va raqamli platformalarning tez rivojlanishi mavjud qonunchilikni yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ko‘plab davlatlarda amaldagi qonunlar yangi texnologik muammolarni to‘liq qamrab olmayapdi. Shu sababdan inson huquqlari , shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq normativ-huquqiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunchilik texnologik taraqqiyotni cheklab qo‘ymasdan , bir vaqtning o‘zida inson huquqlarini ham himoya qilish kerak va aniq huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan AI Akt qonuni sun‘iy intellektni

xavf darajasiga qarab tartibga solishga qaratilgan. AI Akt – sun’iy intellekt bo’yicha dunyodagi ilk keng qamrovli huquqiy tizim hisoblanadi. Ushbu qonun AI bilan bog’liq xavflarni tartibga soladi. Ushbu qoidalarining asosiy maqsadi – Yevropadagi ishonchli sun’iy intellektni rivojlantirishdir. AI Akt Ai ishlab chiqaruvchilar va undan foydalanuvchilar uchun xavf darajasiga asoslangan qoidalarni belgilaydi. Nima uchun AI bo’yicha qoidalar kerak?

Chunki AI Akt insonlarga sun’iy intellektga ishonish imkonini beradi. Ko’pchilik AI tizimlari xavfsiz bo’lsa-da ayrim sohalarda inson huquqlariga zarar yetkazish, adolatsiz qarorlar chiqarishi, diskriminatsiyaga sabab bo’lishi mumkin. Mavjud qonunlar bunday xavflarni to’liq qamrab ololmagani uchun maxsus AI qonuni ishlab chiqildi.

AI Akt quyidagi 6 ta amaliyotni taqiqlaydi:

- Zararli manipulatsiya
- Inson zaifliklaridan foydalanish
- Jinoyat sodir etish ehtimoli bashorat qilish
- Biometric kategoriyalash
- Ijtimoiy baholash tizimi
- Internet va CCTVDan yuz ma’lumotlarini ommaviy yig’ish

Ushbu taqiqqlar 2025- yil fevraldan kuchga kirgan Ushbu muammoga yechim sifatida ya’ni muvozanatni ta’minlash uchun muvozanatni mustahkamlash uchun davlatlararo xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim. Axborot texnologiyalari va internet global xarakterga ega bo’lgani sababli ularni faqat milliy qonunlar bilan tartibga solish yetarli emas. Kiberjinoyatchilik, noqonuniy ma’lumot tarqatish, sun’iy intellekt xavflari va ma’lumotlar xavfsizligi kabi muammolar xalqaro hamkorlikni talab qiladi.

Nega aynan inson huquqlarini ta’minlashda xalqaro hamkorlik muhim? Chunki davlatlar va xalqaro tashkilotlar umumiy standartlar ishlab chiqishi, tajriba almashishi shuningdek xalqaro konvensiyalar yaratishi inson huquqlarini kafolatlashda ko’maklashadi. Ayniqsa, United Nations, UNESCO va Council of Europe kabi tashkilotlar AI etikasi va inson huquqlari bo’yicha xalqaro me’yorlarni ishlab chiqarishda faol ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, milliy qonunchilikni qonunlar qabul qilishning o’zigina yetarli emas. Inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalar o’rtasidagi muvozanatni saqlash uchun ta’limni va huquqiy ongini oshirish kerak. Texnologiyalar bilan bog’liq xavflarni kamaytirishning eng samarali yo’llaridan biri – aholining huquqiy va raqamli savodxonligini oshirishdir. Ko’plab insonlar internet xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish yoki sun’iy intellektning salbiy oqibatlarini haqida yetarli bilimga ega emas. Shu sababli: ta’lim muassalarida raqamli xavfsizlik bo’yicha darslar joriy etish, aholiga kiberxavfsizlik bo’yicha trening mashg’ulotlar o’tkazish, internet madaniyatini

rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Natijada jamiyatda xavfsizlik va erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash osonlashadi.

Xulosa:

Zamonaviy texnologiyalar va sun‘iy intellekt inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ular ta‘lim, iqtisodiyot, xavfsizlik va axborot almashinuvi kabi ko‘plab yo‘nalishlarda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi, so‘z erkinligi va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Maqola davomida inson huquqlari va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilindi. Ayniqsa, sun‘iy intellekt, kuzatuv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalarning inson huquqlariga ta‘siri ko‘rib chiqildi. Texnologiyalar bir tomondan jamiyat xavfsizligini oshirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan ortiqcha nazorat, diskriminatsiyasi va shaxsiy ma‘lumotlarning buzilishi xavfini kuchaytirishi mumkinligini aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlik va erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash demokratik jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli: zamonaviy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, sun‘iy intellektdan mas‘uliyatli foydalanish, aholining raqamli va huquqiy savodxonligini oshirish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, European Union tomonidan ishlab chiqilgan AI Act va Xitoyning generativ AI bo‘yicha qoidalari davlatlarning sun‘iy intellektni tartibga solishga jiddiy e‘tibor qarayotganini ko‘rsatadi. Biroq texnologiyalarni boshqarishda inson huquqlari va demokratik qadriyatlar ustuvor bo‘lib qolishi zarur.

Umuman olganda, texnologiyalar inson manfaatlari yo‘lida xizmat qilishi, inson huquqlari esa har qanday texnologik taraqqiyotining asosiy mezoni bo‘lib qolishi kerak. Faqat shundagina zamonaviy jamiyatda xavfsizlik, erkinlik va taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash mumkin bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. <https://inlibrary.uz/index.php/zdift/article/view/90072>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/tibbiyotda-raqamli-texnologiyalar-va-sun-iy-intellektdan-foydalanishning-o-ziga-xosligi/viewer>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalarning-davlat-xaridlaridagi-o-rni-imkoniyatlar-va-istiqbollar/viewer>
4. https://uza.uz/cn/posts/vazirlik-bayonoti-15-million-fuqaro-malumotlari-sotilgani-haqidagi-xabarlar-asossiz_818639
5. <https://lex.uz/docs/-4872355?ONDATE=25.05.2024>

6. <https://cset.georgetown.edu/publication/china-safety-requirements-for-generative-ai-final/>
7. <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/regulatory-framework-ai>